# XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING
# Q A R O R I

2022 - yil 22 - yanvar VI-42-10-11-167-K/22 Quvasoy shahar hokimligi

## Quvasoy shahridagi Valik mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish va yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etish to‘g‘risida

Quvasoy shahar Valik mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashi va mahalla fuqarolar vakillari yig‘ilishi bayonlari, mahalla fuqarolar yig‘ini raisining iltimosnomasi hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining 2021-yil 30-noyabrdagi 5-sonli yig‘ilish bayonlarini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qarorining “Shaharlar, posyolkalar va ovullarning mahallarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish. Ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘grisida”gi Nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida Qonunining 6,24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi,

## QAROR QILADI:

1. Quvasoy shahridagi Valik mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish va yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etish to‘g‘risida shahar hokimi o‘rinbosari-mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i A.Xaydarovning axboroti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Valik mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2021-yil 15-noyabrdagi 11-sonli va mahalla fuqarolar vakillari yig‘ilishining 2021-yil 19-noyabrdagi 4-sonli yig‘ilish bayonlari, mahalla fuqarolar yig‘ini raisining iltimosnomalari hamda

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining 2021-yil 30-noyabrdagi 5-sonli yig‘ilish bayonlari inobatga olinsin.

3. Valik mahalla fuqarolar yig‘iniga shimol tomonidan Arsif MFY, sharq tomondan Nayman MFY, g‘arb tomondan Bo‘ston MFY, janub tomondan Lashkar MFYlar bilan chegaradoshligi, mahalla xududida Shodiyona, Majnuntol, Nuroniy, Ilg‘or, Shabnam, Zilol, Istiroxat, Gulshan, Chaman ko‘chalari majudligi, mahallada 1300 ta xonadon, 2120 ta oilalar, 6485 nafar aholi borligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qaroriga asosan, Valik mahalla fuqarolar yig‘ini ikkiga bo‘linsin, Valik mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2021-yil 15-noyabrdagi 11-sonli hamda mahalla fuqarolar vakillar yig‘ilishining 2021-yil 19-noyabrdagi 4-sonli yig‘ilish bayonlaridagi takliflari inobatga olinib, “Valik” mahalla fuqarolar yig‘ini "Valik" nomi bilan, yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini “Pastki Valik” nomi bilan yuritilsin.

"Valik" mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga Shodiyona, Majnuntol, Nuroniy, Ilg‘or, Shabnam ko‘chalaridagi 3438 ta aholi, 1084 ta oila, 601 ta xonadon 20 ta ko‘chalarni kiritish. Yangi tashkil etilayotgan “Pastki Valik” mahalla fuqarolar yig‘inini hududiga Zilol, Istiroxat, Gulshan, Chaman ko‘chalaridagi 2947 ta aholi, 986 ta oila, 566 ta xonadon, 13 ta ko‘chalarni kiritish to'g'risidagi takliflari ma’qullansin.

5. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi shaharda yangi tashkil etilayotgan "Pastki Valik" mahalla fuqarolar yig‘inida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq saylov o‘tkazilishini ta’minlasin.

6. Shahar Qurilish bo‘limi (S.Ashurov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini bilan birgalikda shahar bo‘yicha tasdiqlangan yagona zamonaviy milliy dizayn asosida bir oy muddatda geografik obyektlar nomlari qayd qilingan peshlavhalarni o‘rnatsin.

7. Belgilansinki, geografik obyektlar nomlari qayd qilingan

peshlavhalarni o‘rnatish bilan bog‘liq sarf harajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy budjet mablag‘lari va homiylar hisobidan qoplansin.

8. Davlat kadstrlar palatasi Farg'ona viloyati boshqarmasi Quvasoy shahar filiali (O.Xamraliyev) mahallani bo‘lish va yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etishda mahalla fuqarolar yig'inlari hududi chegaralarini belgilash, mahalla fuqarlar yig‘inlarining binolari va hudud kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini belgilangan tartibda qonunga muvofiq tayyorlasin.

9. Shahar Moliya bo‘limi (T.Mamasiddiqov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining shtatlar jadvalini tegishli tartibda shakllantirish vazifasi yuklatilsin.

10. Shahar Statistika bo‘limi (Q.Sodiqov) 2 hafta muddatda yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini hisobiga shaharning va mahalla fuqarolar yig‘inlarining statistik ko‘rsatkichlariga belgilangan tartibda zaruriy o‘zgartirishlarni kiritsin.

11. Shahar Davlat xizmatlari markazi (X.Teshaboyev) yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inini davlat ro‘yxatida o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.

12. Shahar hokimligi Axborot xizmati rahbari (Z.Abdullajonov) va “Isfayram” gazetasi (O‘.Karimova)ga mazkur qarorni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish vazifasi topshirilsin.

13. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i A.Xaydarov hamda xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **57243Mexmonov M.D.**